

# ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ



**ТДИУ**



**Халқаро туризм  
факультети**



“Ўзбекистон иқтисодиётини  
ривожлантиришнинг илмий асослари  
ва муаммолари” илмий-тадқиқот  
маркази

## ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ФАКУЛЬТЕТИ

### ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ЛОГИСТИКА КАФЕДРАСИ

# КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЛОГИСТИК ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

**Республика илмий-амалий конференцияси**

**маъруза тезислари тўплами**

*2019 йил 17 декабрь*

**ТОШКЕНТ**

**Кичик бизнес субъектлари фаолиятида логистик инфратузилмани ривожлантириш омиллари. Республика илмий-амалий конференцияси маъруза тезислари тўплами. – Т.: ТДИУ, 2019. – 410 б.**

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги фармони вазифаларидан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 февралдаги 133-ф сонли фармойиши ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2019 йил 28 февралдаги 205-сонли буйруғига мувофиқ Инфратузилмани ривожлантириш ва логистика кафедраси томонидан “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази билан биргаликда 2019 йил 17 декабрь куни “Кичик бизнес субъектлари фаолиятида логистик инфратузилмани ривожлантириш омиллари” мавзусида ўтказилган илмий-амалий конференцияга келиб тушган илмий мақолалар жамланган.

Унда қуйидаги шубҳалар бўйича мақолалар тизимлаштирилган:

- Ўзбекистонда логистика инфратузилмаларини ривожлантириш истиқболлари.
- Худудларда кичик бизнес ва логистик инфратузилмани ривожлантириш муаммолари.

*Мақолаларда келтирилган маълумотларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.*

**ТДИУ ректори, т.ф.д., проф. К.А. Шарипов**  
**умумий таҳрири остида**

**Таҳрир хайъати:** и.ф.д., доц. К. Ахмеджанов, и.ф.д., проф. М. Косимова, и.ф.д., проф. Б. Салимов, и.ф.д., проф. Н. Махмудов, и.ф.д., проф. Б. Беркинов, и.ф.д., проф. Ш. Эргашходжаева, и.ф.д., проф. Н. Йўлдошев, и.ф.д., проф. А. Кучаров, проф. Г. Абдурахмонова, и.ф.д., доц.С. Худайкулов, и.ф.д., проф. У. Ғафуров, и.ф.н., доц. М. Асқарова, и.ф.н., доц.И. Хотамов

© Тошкент давлат иқтисодиёт  
университети, 2019.

	фаолиятини молиялаштиришнинг инновацион усуллари ривожлантириш масалалари	347
Хайдаров Х.Ғ.	Иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар шароитида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликнинг ўрни	350
Хасанов Х. Н.	Иқтисодиётнинг корпоратив секторига молиявий ресурсларни жалб этиш муаммолари	353
Эргашев Р.	Иқтисодиётни ривожлантиришда стартап ва венчур фондларнинг аҳамияти	357
Ishmanova D.N.	Investment and innovation issues in the development of national competitiveness of the oil and gas enterprises	361
Ishmanova D.N.	Prospects for the development of relations between Uzbekistan and the world monetary fund	365
Ibragimov F. A.	New technologies in small businesses	367
Karlibaeva R.X. Ma'murova M.	Davlat byudjeti daromadlarini o'rta muddatli prognozlashda fiskal siyosati	369
Maxmudov N.M. Avazov N.R.	Xorijiy investitsiyalar asosida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari	375
Muratov R.S. Fayzullayev D.	Mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillari	380
Odilova S.S.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yaxna ichimliklar bozorini rivojlantirish istiqbollari	384
Begalova D.B., Qosimov D.S.	Intellectual yoshlar – kelajagimiz poydevori	386
Qosimova D. S. Mullabayev B.B.	Importance of implementation of vertical integration processes in the development of innovative activities in the manufacturing sector	390
Shadibekova D.D.	Sog'liqni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda Innovatsion strategiyalardan foydalanish	395
Tohirov J.M.	Mamlakatda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish samaralari	398
Naimov Sh.Sh.	Davlat qimmatli qog'ozlari va ularning turlari	402
Карлибаева Р.Х., Машарипова Ш.А.	Роль казначейской службы в управлении денежными потоками предприятия	405
Naimov Sh.Sh.	Davlat tashqi qarzining mohiyati va xususiyatlari	408

foydalanish printsiplarini, ularni davlat boshqaruvining barcha darajalarida hisob-kitob qilish va hisobot berish metodologiyasini belgilashida. Bu byudjetning ochiq va oshkoraligini sezilarli darajada oshiradi, fiskal intizomni ta'minlash mexanizmlarini belgilaydi, davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy organlari o'rtasida byudjet mustaqilligini nazarda tutadi, ichki va tashqi audit, davlat moliyaviy nazoratining asosiy printsiplarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, o'rtacha muddatli byudjet ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Birinchidan, birlashtirilgan ko'p yillik byudjetni tuzish – shu jumladan ma'muriy nuqtai nazardan ham ancha mushkul vazifa. Uni echish moliya organi mazkur maqsadlarga ajratishga tayyor bo'lgan hajmdan ko'proq resurslarni talab qilishi mumkin. Ikkinchidan, ko'p yillik to'laqonli byudjetdan foydalanish yuksak darajada siyosiy va ijtimoiy kelishuv mavjudligini nazarda tutadi. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ko'p yillik byudjet ayniqsa hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatga, shuningdek byudjetlararo munosabatlardagi o'zgarishlarga kuchli bog'liq bo'lgan mintaqalar uchun haddan tashqari qattiq vosita bo'lishi mumkin.

Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish hukumatga taqdim etuvchi axborot iqtisodiy siyosat turli yo'nalishlarining xarajatlari va natijalariga baho berish, muqobil dasturlar orasidan eng samaralisini jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va byudjet cheklashlari doirasidan chetga chiqmasdan tanlash imkoniyatini beradi.

*N.M. Maxmudov, i.f.d., prof., Makroiqtisodiyot kafedrasida  
N.R. Avazov, Iqtisodiyot fakulteti talabasi,  
TDIU*

## **XORIJIY INVESTITSİYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalar asosida kichik biznes va tadbirkorlik rivojlantirish yo'nalishlari keltirilib o'tilgan. Bundan tashqari respublikada yillar davomida kichik biznes va tadbirkorlik rivojining ko'rsatkichlari tahlil qilingan hamda bu soha bugungi kundagi holat o'rganilgan hamda tegishli xulosalar keltirilib o'tilgan. Bu maqolada xorijiy investitsiyalar jalb qilish hajmini oshirish asosida kichik biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan hamda tegishli xulosalar qilingan.*

*Kalit so'zlari: investitsiya, kichik biznes, tadbirkorlik, investitsion muhit, xorijiy investitsiya, ishsizlik darajasi, aholi farovonligi, iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish korxonalarini.*

*Аннотация: В этой статье описываются пути развития малого бизнеса и предпринимательства за счет иностранных инвестиций. Кроме того, в стране на протяжении многих лет анализируется развитие малого бизнеса и предпринимательства, изучается текущая ситуация в этой области и делаются соответствующие выводы. Эта статья разрабатывает и*

*предлагает соответствующие рекомендации по развитию малого бизнеса и предпринимательства за счет увеличения иностранных инвестиций.*

*Ключевые слова: инвестиции, малый бизнес, предпринимательство, инвестиционный климат, иностранные инвестиции, уровень безработицы, благосостояние, экономика, экономический рост, производственные предприятия.*

*Abstract: This article describes the development of small business and entrepreneurship through foreign investment. In addition, for many years the country has been analyzing the development of small business and entrepreneurship, studying the current situation in this area and drawing the appropriate conclusions. This article develops and offers relevant recommendations for the development of small business and entrepreneurship by increasing foreign investment.*

*Key words: investments, small business, entrepreneurship, investment climate, foreign investment, unemployment rate, welfare, economy, economic growth, manufacturing enterprises.*

Mamlakatda aholi farovonligini oshirish hamda ishsizlik darajasini pasaytirishning eng asosiysi mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish esa ko'p jihatdan mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmiga bog'liq hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga qanchalik ko'p xorijiy investitsiyalar kirib kelsa, mamlakatda shunchalik kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanadi. Mamlakatimizda ham bu sohada katta islohatlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida investitsiyalar tanlab olingan hamda investitsiya jalb qilib, iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari belgilab olingan. Bu belgilab olingan yo'nalishlar asosida juda katta ijobiy ishlar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu sohalar to'g'risida quyidagi fikrlarini bildirib o'tgandilar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi"[1]. Bundan tashqari "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da ham tadbirkorlikni rivojlantirish hamda investitsion muhitni takomillashtirish to'g'risida quyidagi vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilanmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;
- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish[2].

Yuqorida belgilab olingan ustuvor yo'nalishlarni amaliyotga tatbiq etish asosida iqtisodiyot sohasida yuqori o'sish sur'atlariga erisha olamiz. Buning uchun bu ustuvor yo'nalishlarni amaliyotga tatbiq etishni jadal amalga oshirish talab etiladi. Bunda asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilmoqda. Bu eng samarali yo'l hisoblanadi. Investitsiya asosida tadbirkorlikni juda tez sur'atlarda rivojlantirish mumkin. Tadbirkorlik rivojlanishi asosida esa mamlakatda birinchidan, aholi daromadlarini ko'payadi. Ikkinchidan, ishsizlikni pasayadi. Uchinchidan, aholi farovonligi oshadi. Bu bilamiz-ku, iqtisodiyot oldida turgan eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida iqtisodiyotning barcha sohalaridagi mavjud muammolarni hal qilish mumkin.

Mamlakatimizga yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot sohalari bo'yicha ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ijobiy natijalarga erishilganini kuzatishimiz mumkin:

### *1-jadval*

#### **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi**

Yillar	Sanoat (mlrd. so'm)	Qurilish (mlrd. so'm)	Bandlik (ming kishi)	Eksport (mln. AQSH. dol)	Import (mln. AQSH. dol)	Savdo (mlrd. so'm)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	Xizmatlar (mlrd. so'm)	Yuk tashish (mln. tonna)	Yuk aylanmasi (mln. tonna-km)	Yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi)
2010	10132,9	4163,2	8643,9	1782,8	3287,9	18616,1	31900,4	15214,1	255,2	6084,5	3084,5
2011	13586,8	6188,3	8950,7	2826,2	3895,5	24741,9	46704,5	19556,5	292,0	6894,3	3416,2
2012	17114,6	7925,5	9239,7	1910,5	4946,0	32242,9	56926,6	24841,8	304,3	7271,9	3687,9
2013	23312,0	10377,7	9604,0	3752,3	5909,4	40564,5	67510,7	31409,1	352,8	7919,1	3953,8
2014	30907,0	13944,9	9950,8	3657,8	6352,6	50197,8	82957,2	40187,9	416,1	8632,9	4224,5
2015	39643,5	16954,0	10170,4	3377,7	5523,1	61972,3	101197,5	47269,6	472,8	9225,1	4486,3
2016	50654,5	19671,0	10397,5	3139,2	5676,8	78935,6	118011,4	61346,2	538,6	10072,4	4866,5
2017	61367,8	22469,4	10541,5	2759,3	7511,9	92973,0	152010,5	69212,7	548,8	10444,4	5037,5
2018	87962,0	37451,7	10128,8	3810,8	10916,2	114896,4	191767,5	84433,4	611,7	11657,7	5242,6


Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

Yuqoridagi jadval yillar davomidagi respublika iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha hajmlari keltirilib o'tilgan. Unga ko'ra 2017-yilda sanoatda 61367,8 mlrd.so'mni, qurilishda 22469,4 mlrd.so'mni, aholi banligi bo'yicha 10541,5 ming kishi, eksport 2759,3 mln. AQSH dollarini, importda 7511,9 mln. AQSH

dollarini, savdoda 92973,0 mlrd.so‘mni, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 152010,5 mlrd.so‘mni, xizmatlar sohasida 69212,7 mlrd.so‘mni, yuk tashishda 548,8 mln.tonnani, yuk aylanmasida 10444,4 mln.tonna-kmni, yo‘lovchi tashishda 5037,5 mln.yo‘lovchini tashkil qilgan.

2018-yilda esa bu ko‘rsatkichlar barqaror iqtisodiy o‘shishga erishilgan. Unga ko‘ra 2018-yilda sanoatda 87962,0 mlrd.so‘mni, qurilishda 37451,7 mlrd.so‘mni, aholi banligi bo‘yicha 10128,8 ming kishi, eksport 3810,8 mln.AQSH dollarini, importda 10916,2 mln.AQSH dollarini, savdoda 114896,4 mlrd.so‘mni, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 191767,5 mlrd.so‘mni, xizmatlar sohasida 84433,4 mlrd.so‘mni, yuk tashishda 611,7 mln.tonnani, yuk aylanmasida 11657,7 mln.tonna-kmni, yo‘lovchi tashishda 5242,6 mln.yo‘lovchini tashkil qilgan.


Bundan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes va tadbirkorlik mamlakatimizda kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Jahon bankining “Doing business” reytingida ham mamlakatimiz o‘rni yaxshilanib bormoqda.



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining Jahon bankining “Doing business” reytingidagi o‘rnining yillar davomidagi dinamikasi[3]**

Yuqoridagi reytingda O‘zbekistonning o‘rni brogan sari ko‘tarilib borayotganligi mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhiti shakllantirilayotgani hamda qulay investitsion muhitni shakllantirayotganligidan dalolat beradi. Raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, keying yillarda tadbirkorlik subyektlari soni ham sezilarli darajada ko‘payib bormoqda.

**Yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda)**



**2-rasm. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan[4]**

Yuqoridagi grafik asosida mamlakatimizda har 1000 aholiga nisbatan tadbirkorlik subyektlarining to'g'ri kelishi keltirilgan hamma yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan. Unga ko'ra, 2017-yil mos davrida har 1000 aholiga 12,4 ta tadbirkorlik subyekti to'g'ri kelgan bo'lsa, 2018-yilning mos davrida 13,1 ta tadbirkorlik subyekti to'g'ri kelgan, 2019-yilda esa 13,1 ta tadbirkorlik subyekti to'g'ri kelmoda.

Yuqoridagi kabi o'zgarishlar bilan bir qatorda tadbirkorlikni rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlariga investitsiya kiritish bilan bog'liq bazi muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Ularga quyidagi muammolarni kiritishimiz mumkin:

- tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini amalga oshirishda imtiyozlarning kamligi;
- mamlakatdagi inflyatsiya darajasining balandligi hamda uning investitsiya loyihalariga ta'sirining balandligi;
- soliq va bojxona to'lovlarining baland darajada ekanligi;
- nazorat o'rganlari tomonidan tadbirkorlar faoliyatiga asosiz aralshuvlarning mavjudaligi va bu asosda tadbirkorlarga noqonuniy noqulayliklar keltirilib chiqarilayotganliklari;
- ortiqcha byurokratik tosiqlarning mavjudligi;
- aholida tadbirkorlik madaniyatining shakllanmaganligi;
- bank kredit foiz stavkalarining balandligi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammo va kamchiliklar tufayli hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik rivojlanishiga to'siqlar paydo bo'layapti. Bu muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida va aniq bartaraf etish asosida tadbirkorlikni jadal rivojlantirish mumkin.



Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning yechimi sifatida quyidagi takliflarni berib qolamiz:

✓ tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini amalga oshirishda turli imtiyozlarni ko‘paytirish;

✓ mamlakatdagi inflyatsiya darajasini pasaytirish va uni past holatda barqaror ushlab turish;

✓ soliq va bojxona to‘lovlarini miqdorini kamaytirish;

✓ nozorot organlari tomonidan tadbirkorlar faoliyatiga asosiz aralashuvlarni oldini olish va ular faoliyatida noqulayliklarni keltirib chiqarmaslik;

✓ ortiqcha byurokratiyani oldini olish;

✓ aholining tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish;

✓ bank foiz stavkalarining baland darajasini pasaytirish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, iqtisodiyotni rivojlantirishda hamda mamlakat YaIMisini ko‘paytirishda asosiy bo‘g‘in bo‘lib tadbirkorlar hisoblaniladi. Chunki mamlakatda asosiy ishlab chiqarish faoliyatini aynan tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladi. Tadbirkorlikni rivojlantiruvchi kuch bu investitsiyalar hisoblaniladi. Qachonki, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar kirib kelishi hajmi oshsa, shundagina mamlakatda tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Tadbirkorlik rivojlanishi natijasida mamlakatda birinchidan ishsizlik darajasi pasayadi, ikkinchidan, aholi daromadlari ko‘payadi. O‘zi iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy maqsadi ham shu hisoblanadi. Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotni rivojlantirish eng dolzarb hamda samarali yo‘nalish hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, 2017 yil 7 fevral, PF-4947.

3. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/ease-of-doing-business>

4. <https://stat.uz/uploads/doklad/2019/yanvar-sentyabr/uz/8.pdf>

5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

6. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti.

*R.S. Muratov, Infratuzilmani rivojlantirish  
va logistika kafedrası dotsenti, i.f.n.,  
D. Fayzullayev, magistratura 2-bosqich  
magistranti, TDIU*

## **MAMLAKAT IQTISODIYOTINI DIVERSIFITSİYALASH SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORILIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

**КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЛОГИСТИК  
ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ**

**Республика илмий-амалий конференцияси  
маъруза тезислари тўплами**

*Муҳаррирлар  
Вахабова М.М., Камилова Д.Д.,  
Мадумарова Г.Э.*

*Техник муҳаррир  
Қаришьева Ш.Д.*

*Мусаҳҳиҳ  
Султанова Д.Х.*

---

Босишга рухсат этилди 17.11.2019. Қоғоз бичими 60x80 1/16.  
Шартли босма табағи 25,6 б.т. Адади 100 нусха.  
\_\_\_\_\_ - сонли буюртма.  
Iqtisodiyot нашриёти ДУКнинг матбаа бўлимида чоп этилди.  
100003. Тошкент ш. Ислон Каримов кўчаси, 49-уй.